

PAM-1 AKUSTIK QURILMASIDA INGICHKA TOLALI PAXTANING SIFAT KO'RSATKICHLARINI TADQIQI

prof. **M.K.Qulmetov**

dotsent **J.R.Muhtorov**

dotsent. **U.P.Xaydarov**

tayanch doktorant **S.Q. Yodgorov**

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

t.f.n.katta ilmiy xodim. **A.A.Ahmedov**

“Paxtasanoat ilmiy markazi”AJ

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “ZAMIN ANGOR CLUSTER” korxonada Termiz-208, Surxon-14, Termiz-202, Surxon-103 ingichka tolali paxta seleksiya navlaridan namunalar olinib, “Paxtasanoat ilmiy markazi”AJ dagi PAM-1 akustik qurilmasida ingichka tolali paxtaning sifat ko'rsatkichlari tahlil etilgan.

***Tayanch so'zlar:** ingichka tolali paxta, seleksiya navi, akustik qurilma, mikroneyr ko'rsatkich, namuna massasi, texnik ko'rsatkich*

STUDY OF QUALITY INDICATORS OF THIN FIBER COTTON IN PAM-1 ACOUSTIC DEVICE

ANNOTATION

In this article, in the conditions of the «ZAMIN ANGOR CLUSTER» enterprise, samples of fine-fiber cotton of the breeding varieties Termiz-208, Surkhon-14, Termiz-202, Surkhon-103 were selected and the quality of fine-fiber cotton was investigated

measured in the PAM-1 acoustic device of the «Pakhtasanoat Scientific Center » JSC the indicators were analyzed.

Keywords: *thin fiber cotton, selection grade, acoustic device, microwire indicator, sample mass, technical indicator*

KIRISH.

Paxta mahsulotlari va boshqa turdagi mahsulotlarning sifatini baholash, uning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash va o'lchash ishlari bo'yicha olingan natijalar hamda standart va meyoriy-hujjatlarga solishtirilgandagi bahosiga asoslangan bo'ladi. Ingichka tolali paxta sifat ko'rsatkichlarini rivojlantirish, paxta tozalash korxonalarini modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash, ishlab chiqarish va shuningdek, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Chunki ingichka tolali paxta va uning mahsulotlariga bo'lgan talab doimo ortib borishi paxtachilik sanoatida zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish hamda ulardan sifatli mahsulot olish kerak ekanligini ko'rsatmoqda[1].

Mahsulot sifatini baholashda natijaning qanchalik to'g'ri va haqiqatga yaqin bo'lishi ham katta ahamiyatga egadir. Sifat ko'rsatkichini aniqlashda odatda oddiy standart sinash usuli ishlatiladi. O'lchashning xatoligi 5 foizdan oshmaydigan maxsus asbob-uskunalar yordamida bajariladi. Sinov ishlarini olib borishdan oldin namuna belgilangan sharoitdasaqlanishi lozim. Bunda boshlang'ich ko'rsatkichlarini belgilash katta ahamiyatga egadir. Boshlang'ich ko'rsatkichlar o'z navbatida to'g'ri yoki notog'ri, ahamiyatli yoki ahamiyatsiz bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Tekshirish orqali aniqlangan o'lchashlar mahsulot sifat darajasini birlashtirgan ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadi[2].

Tadqiqot ishlari Surxondaryo viloyatidagi “ZAMIN ANGOR CLUSTER” korxonasidan olingan ingichka tolali paxta navlari “Paxtasanoat ilmiy markazi” AJda olib borildi. Uning uchun Respublikamizda 2022-2023 yillarda yetishtirilgan jumladan, Termiz-208, Surxon-14, Termiz-202, Surxon-103 seleksiya navlari olinib, tolalarining sifat ko‘rsatkichlari PAM-1 akustik qurilmasida tajribalar o‘tkazildi.

Ingichka tolali paxta sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun PAM-1 akustik qurilmasidan foydalanildi.



1-rasm.PAM-1.Akustik qurilmasi

Namuna (tola) orqali o‘tadigan tovush to‘lqinlari ichiga o‘rnatilgan mikrofon yordamida elektr signaliga aylanadi. Signalning kattaligi tovush tebranishlarining bosim amplitudasiga proportsionaldir. Chiqish signalining kattaligi o‘lchov va ko‘rsatkich birligi bilan o‘lchanadi[3].

Qurilmaning texnik ko'rsatkichlari:

- namuna massasi (tola uchun) 8,00 g
- o'lchash kamerasi ko'rsatkichlari:
- ichki diametr 40 mm
- Ishchi kameraning balandligi 30 mm
- mikroneyrni o'lchash diapazoni 2,5 dan 6 mic gacha.

Paxta tolasining sifat ko'rsatkichlarini aniqlashdan oldin namunalar GOST ISO 139-2014 hamda GOST 10681-75 standartiga muvofiq klimatik sharoitda saqlab turildi va sinovlar o'tkazildi[4].

NATIJALAR

Olingan namunalarni PAM-1 akustik qurilmasining 30 mm uzunlikdagi ishchi kamerasidagi balandligi 150 mm bo'lgan silindir ichiga solinib, qurilmadagi Start tugmasini bosiladi. Sinov 30 sekund davom etadi hamda natijalar akustik qurilma monitoriga chiqadi.


Tanlab olingan namunalar PAM-1 akustik qurilmasi 10 marotaba sinovdan o'tkazildi hamda o'rtacha qiymatlar ko'rsatgichi olinib quyidagi jadvalda keltirilgan (tola uchun):

1-jadval

| № | Seleksiya navi | Namuna massasi, gr | Sinov davomiyligi, s | Tola mikroneyr ko'rsatkichi (Mic) |
|---|----------------|--------------------|----------------------|-----------------------------------|
| 1 | Termiz-208 | 8 | 30 | 4,4 |
| 2 | Surxon-14 | 8 | 30 | 4,2 |
| 3 | Termiz-202 | 8 | 30 | 4,5 |
| 4 | Surxon-103 | 8 | 30 | 4,1 |

MUHOKAMA

Olingan natijalarni quyidagi gistogrammaga joylashtiramiz.



1.1-rasm PAM-1 akustik qurilmasida olingan ko'rsatkichlar

Olingan ko'rsatkichlarni O'zDst 604:2016 standarti bo'yicha taqqoslaganimizda Termiz-202, Termiz-208 ingichka tolali paxta navi 1b tipiga, Surxon-14, Surxon-103 ingichka tolali paxta navi esa 2 tipga mos keldi. Umumiy ko'rsatkichlar bir biriga juda yaqin ekanligini yuqorida keltirilgan gistogramma orqali ko'rishimiz mumkin. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, tola mikroneyr ko'rsatkichi nisbiy hatoligi 4,6% dan oshmadi[5].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, olingan ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki mikroneyr ko'rsatkichi bo'yicha Termiz-202 ingichka tolali paxta navi sifat ko'rsatkishlari boshqa seleksiya navlari ko'ra yuqori ekanligi aniqlandi. Termiz-202 seleksiya navini boshqa xududlarga ham ekish hamda ishlab chiqarish korxonalariga ham tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Kitoblar

1. Tadjiev M, Ochildiev N va boshqalar –Surxondaryo viloyatida g‘o‘za va g‘o‘za majmuidagi qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirish agrotexnologiyalari bo‘yicha tavsiyalar .Termiz 2017 , b.t. 4,8

2. A. Salimov Mahsulotlar sifatini aniqlash va sertifikatlash.Toshkent 2019

Jurnallar

1.**Kulmetov M.**, Mukhtarov J.R., Influence position of fibers on the quality of production In the processes of yarn production// European Science Review. Vienna, - 2018,- №1-2 (279). -P. 240 244. (05.00.00; №3)

2.**M.K.Qulmetov**, J.Muxtorov, S.Q.Yodgorov. Ingichka tolali paxta seleksiya navlari bo‘yicha tola tarkibidagi nuqson va chiqindilar miqdorining tadqiqi. Innovative Development in Educational Activities ISSN: 2181-3523 Volume 2 | Issue 18 | 2023

3.**M.K.Kulmetov**, J.RMuxtorov, S.Q.Yodgorov.Piltadagi ingichka tolalarning to‘g‘rilanganligi va paralellashish darajasini aniqlashning takomillashtirilgan usuli.Toshkent 2023, 49-55 b. O‘zbekiston to‘qimachilik jurnali.

4.**M.K.Qulmetov**, J.Muxtorov, S.Q.Yodgorov. O‘lchash qiymatlarini matematik qayta ishlash va kam sonli o‘lchashda namunaning yig‘ma ko‘rsatkichlarini aniqlash. ISSN: 2181-3523 Volume 2 | Issue 18 | 2023. Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.938 <http://sjifactor.com/passport.php?id=22323>.

5.**M.K.Kulmetov**, J.RMuxtorov, S.Q.Yodgorov.O‘lchash qiymatlarini matematik qayta ishlash ko‘rsatkichlarini baholash.Termiz 2023. 35-37 b “Paxta tozalash, to‘qimachilik va yengil sanoat sohalarining texnologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman.

6.**M.K.Kulmetov**, J.RMuxtorov, S.Q.Yodgorov. Ingichka tolali paxtaning mexanik shikastlanishining turli seleksiya navlari bo‘yicha o‘zgarishi. Farg‘ona 2023. 36-39 b To‘qimachilik va yengil sanoatda ilmhajmdor innovatsion texnologiyalar va dolzarb muammolar yechimi.Xalqaro ilmiy-texnikaviy anjuman.

Vebsayt

1.<https://lex.uz/docs/-5721862>

2. <http://sjifactor.com/passport.php?id=22323>